Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Oltiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatoeva	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari	1403
Yarmatov Raxmboy Baxramovich	
Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish	1409
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1412
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.	
O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari.....	1416
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1421
Maxammatova Feruza Olimovna	
O'zbekistonda virtual muzeylar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari.....	1424
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Yusupova Mohinur Ulug'bekovna	
Xalqaro ta'lim tajribasi asosida o'quvchilarda tafakkur erkinligini shakllantirishning	
zamonaviy yondashuvlari	1434
Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarda pedagogik taksonomiya ko'nikmalarini	
shakllantirish metodikasi.....	1438
Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna	
Tibbiyot texnikumi talabalari klinik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari:	
konseptual yondashuvlar va ilmiy talqinlar	1443
Axmedov Marifxon Mamatxanovich	
Valeologik tamoyillarning maktabgacha ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	1448
Begmatova M. T.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish.....	1452
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda fuqarolik kompetensiyasi	
dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	1456
Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich	
Oilada ota-ona va bola munosabatlaridagi pedagogik-psixologik omillar.....	1460
Exsonova Feruza Turdixo'jayevna	
Педагогико-психологические аспекты формирования социокультурной компетентности	
будущих учителей средствами музейной педагогики	1464
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Serebral falaj(bsf)tashxisli bolalarda respirator-nutq mexanizmlarining buzilishi va	
korreksion yondashuvlar.....	1469
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	
Milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlar tarbiyasida rivojlanishining zamonaviy roli va ahamiyati	1473
Mirzayev Dilshod Khamidovich	
O'smir qizlarda deviant xulqni profilaktika qilish	1477
Mo'minova Dilrabo Murodillayevna	
Arab tilshunosligida ma'no, tuzilma va bayon nazariyasining shakllanishi	
Sakkokiy qarashlari asosida tahlil.....	1481
Abdullayev Olimjon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar kadrlarining moliyaviy savodxonligini	
rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlar.....	1487
Yuldasheva Munisa Ibrohimovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya	1492
Yormatova Gulnoz Qayumovna	
Developing Imagination and Narrative Thinking in Young Learners	
Through English Storytelling Activities.....	1497
Madjitova Oyshakhon Mukhammadganiyevna, Anvarova Muslima	
Effectiveness of Online Resources in Teaching Professional Vocabulary to Philology Students	1508
Yusupova Zarrina	
Modern Automotive Lexicon: Formation Processes, Semantic Fields, and Functional Usage	1511
Yuldasheva Mastona Muxubillayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	
asosida tashkil etishda "Atrof va men" metodikasidan foydalanish	1514
Uralova Nurxon Maxadovna	
Chet tili bo'yicha A1, A2, B1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar	
(lingvistik kompetensiya) tahlili	1519
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna	



Гендерных различия прокрастинации.....	1526
Рахмонова Гузал Жамшидовна	
A System of Software that Develops the Intellectual Potential of Students in Teaching Mathematics	1529
Toxirova Malika Muzaffar qizi	
O'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarida muomala madaniyatini tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1535
Maxkamova Muborak Yusupovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	1543
Raximova Zilola Alimbayevna	
Ona tili darsliklari ta'limi mazmunini lingvistik ekspertiza qilish metodikasi	1547
Majidova Aziza	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....	1551
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna	
Oliy texnika ta'limida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini o'qitishning innovatsion metodik asoslari	1554
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
STEAM tamoyillari asosida rivojlantiruvchi muhit yaratish	1558
Umarova Muqaddasxon	
Autistik spektr buzilishi: DSM-5 va ICD-11 tasniflari, tadqiqotlar va jamiyatdagi ahamiyati.....	1562
Tuxtayeva Maxfirat	
STEAM texnologiyasi asosida xorijiy til (ingliz tili) o'rgatish.....	1566
Teshaboyeva Zumradxon	
Cultivating Social-Emotional Learning (SEL) in Classrooms.....	1569
Choriyev Ilxom Kenjayevich	
Kutubxona-axborot muassasalarida kadrlar siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslari	1573
Mamatkabilov A. X.	
Sun'iy intellekt – speechace dasturi yordamida o'quvchilarning ingliz tilida talaffuz malakasini oshirish	1578
Nabiyeva Shahnoza Alijon qizi	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	1583
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
STEAM ta'limining O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	1588
Abdukarimova E'zoza Fazliddin qizi, Bayjigitova Dilorom Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida jarayonlarning boshqarishning innovatsion texnologiyalari	1592
Uzaqov Nomozaali Hamdamovich	
Kimyoni o'qitish jarayonida virtual laboratoriyadan foydalanish	1596
Murodova Sitorabonu Bahodir qizi	
Raqamli platformalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning media ko'nikmalarini shakllantirish	1599
Safarov Feruz Saminjon o'g'li	
Qoraqalpoq xalq an'analari vositasida maktab o'quvchilarini an'anaviy tarbiyalash (Bo'zatov tumani maktablari misolida).....	1603
Dosjonova Nilufar Rustam qizi	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	1607
Abira Bakhramova	
Kichik maktab yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini korreksiyalashda ertak terapiyasidan foydalanish	1613
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi	
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarida bir qator tarkibiy komponentlarning uyg'un rivoji.....	1617
Mirzaxojayeva Dilrabo To'liqin qizi	
O'quv mashg'ulot guruhida musoboqa oldi mashg'ulotlar tuzilishi (badminton misolida).....	1621
Ismoilova Fotima Ismoil qizi	
Alohida ajratilgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish davomida ularning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish zaruriy omil ekanligi to'g'risida.....	1626
Qozoqboyeva Xanifaxon Shavkatjon qizi	

Methodological Foundations for Shaping the Creative Activity of Younger Pupils in Solving Mathematical Problems	1630
Dzhurakulova Adolat Khalmuratovna	
Jadidlar merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtirish metodini takomillashtirish	1638
Bekchanova Ozoda Otajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirish.....	1641
Alibayeva Dildora Raxmatilla qizi	
Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish.....	1644
Bolibekov Alisher Abdusalomovich	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	1647
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Kompetentlik tushunchasi: o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri.....	1650
Hayitboyeva Nilufar G'anijonovna	
Emotional Burnout of Teachers as a Factor Influencing Professional Activities	1655
Kamilova Nadira Gayratovna, Abdullaeva Nelufar Karimjanovna	
Методика развития профессионально-речевых компетенций будущих специалистов	1663
Комилова Мукаррам Кобилжоновна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari va samarali metodlari	1666
Koziyeva Fazilat	
Tilshunoslikda lingvopoetikaning o'rganilishi	1671
Maxammatova Feruza Olimovna	
Deviant xulq-atvor shakllanishining nazariy va eksperimental tadqiqotlar tahlili	1674
Xolmurotova Shoxista Mirzaliyevna	
IJF yangi qoidalarining dzyudochilar texnik arsenaliga ta'siri: 2020 va 2024-yilgi olimpiadalar qiyosiy tahlili.....	1677
A. T. Saydullayev	
Системный подход к внедрению мультилингвальных методов: разработка структурно-функциональной модели в педагогическом вузе	1681
Жумамуратова Юлдуз Бахтияровна	
Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasini o'qitishning metodik asoslari	1684
Nigora Botirova	
Musiq a asosida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantrish metodlari.....	1688
Toshkuziyeve Dilrabo Yusupjanovna	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano ijro texnikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari	1692
Normurodova Lobar Mamasoliyevna	
XXI asr raqamli texnologiyalari sharoitida boshlang'ich sinflarda STEM/STEAM texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari.....	1697
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'zlikni anglashda motivatsiya va professional kompetensiyalarning shakllanish omillari.....	1702
To'raxonova Mohinur Abdunazar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning psixologik-pedagogik asoslari ...	1705
Shomurodova Nozima Baxriddin qizi	
Liderlik sifatleri va ularni pedagogik faoliyatda rivojlantirishga doir konseptual yondashuvlar	1708
Mansurova Maftuna Komiljon qizi	
Актуальные проблемы олимпийского образования студенческой молодёжи	1712
Мамазиятов Дониербек Бахтиярович	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini shakllantirishda zamonaviy raqamli vositalarning o'rni.....	1716
Dadonova Aziza Tulkunovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga o'zbek va ingliz tillarini integrativ aloqadorlikda o'rgatish tamoyillari.....	1720
Mirkasimova Zilola Alisherovna	



Bolaning axloqiy intellektini shakllantirishda otaning roli	1724
<i>Qayimova Maftuna Tursunovna</i>	
“Ota-ona va oila” konseptining o‘zbek paremiologik tizimidagi ifodalanishi (semantik-pragmatik tahlil)	1729
<i>Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li</i>	
Методика организации международного сотрудничества на основе кластерного подхода в высших образовательных учреждениях	1735
<i>Тиллаев Алишер Хасанович</i>	
Masofaviy ta’lim platformalarida o‘zlashtirish monitoringi uchun Learning Analytics metodlaridan foydalanish imkoniyatlari	1740
<i>Abdulatipov Muhammadtemur</i>	
Kayzen texnologiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilar boshqaruv madaniyatini rivojlantirish	1746
<i>Eshonkulova Shaxnoza Boyto‘rayevna</i>	
Bo‘lajak pedagoglarning uzluksiz amaliyot jarayonida professional mahoratini oshirish usullari va texnologiyalari	1751
<i>Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi</i>	
Er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar	1754
<i>Jalilova S. X.</i>	
Innovatsion texnologik yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinflarda savodxonlik faoliyatini takomillashtirish	1758
<i>Karimjonova Dilnoza Alijanovna</i>	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida art-pedagogik mashg‘ulotlar yordamida bolalarning kreativ tafakkurini shakllantirishning samarali yo‘llari	1761
<i>Qayumova Maftuna Qahhor qizi</i>	
Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda uchraydigan muammolar va ularni hal etish	1765
<i>Zokirova Sohiba Muxtaraliyevna, Mamadaliyev Anziratxon Mirzaumar qizi</i>	
Формирование этикетного поведения у детей старшей подготовительной группы	1768
<i>Назруллаева Хумора Муродилла кизи</i>	
Дистанционное обучение как развивающая и дополняющая форма образования познавательных способности учащихся 6-7 классов (на примере изучения истории Узбекистана)	1772
<i>Sultonova Maxfirat Akramovna</i>	
IIV akademik litseyi o‘spirin o‘quvchilarida kasbiy motivatsiyaning o‘ziga xos jihatlari	1775
<i>Jo‘rayev Sodiqjon Muxammadinovich</i>	
Ota-ona va bola o‘rtasidagi emotsional muloqot	1779
<i>Eshemov Abdurahim Ravshan o‘g‘li</i>	
Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirishda kimyoning o‘rni	1781
<i>Ahadov Ma‘murjon Sharipovich, Djo‘rayeva Dildora Ziyadulloyevna</i>	
Organization of Students’ Independent Learning: Theoretical Foundations and Key Factors	1787
<i>Mamatkulova Kimyokhon Abdujalilovna, Akramova Nilufar Ahmadjonovna</i>	
Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi	1790
<i>Omonova Gulandam Davlatovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna</i>	
Oliy va professional ta’limda laboratoriya ishlarini sun‘iy intellekt yordamida soddalashtirish	1794
<i>Sharopov Farrux Furqat o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida	1798
<i>Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiya va media savodxonlikni rivojlantirishning asoslari	1803
<i>Yuldasheva Munisa Rashidovna</i>	
Kimyo darslarini loyihaviy ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish metodikasi	1807
<i>Ahadov Ma‘murjon Sharipovich, Karimova Durdona Dilshod qizi</i>	
O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning innovatsion metodik asoslari	1812
<i>Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna</i>	



BOLANING AXLOQIY INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISHDA OTANING ROLI

Qayimova Maftuna Tursunovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda axloqiy intellektni shakllantirish jarayonida otaning roli tahliliy jihatdan yoritilgan. Unda otalarning tarbiya jarayonidagi ishtiroki, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, ota, axloqiy intellekt, bilim.

Abstract: The article provides an analytical overview of the role of fathers in the formation of children's moral intelligence. It examines the importance of paternal involvement in upbringing, as well as its impact on the development of moral values and social behavior, based on scientific research.

Key words: family, education, father, moral intelligence, knowledge.

Аннотация: В статье представлен аналитический обзор роли отца в процессе формирования нравственного интеллекта детей. Рассматривается значение участия отцов в воспитании, развитии нравственных ценностей и социального поведения ребёнка на основе научных исследований.

Ключевые слова: семья, воспитание, отец, нравственный интеллект, знания.

KIRISH

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, otalarning farzandlarini tarbiyalashda ishtirok etishi yosh bolalarda to'g'ri axloqiy munosabat hamda qadriyatlarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda progressiv axloqiy inqiroz va kuchayib borayotgan tajovuzkorlik sharoitida axloqiy intellektni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Otalar tomonidan ijtimoiy xulq-atvorni namoyon etish, bolalar bilan turli tadbirlarda ishtirok etish va muloqotlar olib borish yosh bolalarning boshqalarning ehtiyojlariga nisbatan sezgirligini oshirishga xizmat qiladi hamda axloqiy tamoyillar va qadriyatlar haqidagi muhim bilimlar manbai bo'lishi mumkin.

Bolaning yashash va rivojlanish muhiti uning voyaga yetishi, ayniqsa, axloqiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. XXI asrda vujudga kelayotgan axloqiy inqiroz belgilari tobora kuchayib bormoqda va bu holat tabiiy ravishda jamiyatda tashvish uyg'otmoqda. Zamonaviy bolalarga texnologik yutuqlar va iste'mol madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, texnologik taraqqiyot axborotlar oqimini tezlashtirsa, ikkinchi tomondan, axloqiy tamoyillarga rioya etish darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Lobel va uning hamkasblari tomonidan 2017-yilda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, video o'yinlar bilan tez-tez shug'ullanish bolalarda ijtimoiy xulq-atvorning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin, zo'rvonlik mazmunidagi o'yinlarda ishtirok etish esa og'zaki va jismoniy tajovuzkorlikning kuchayishi bilan bog'liqdir.

Bolalar aslida mehribonlikka moyil bo'lib, ushbu potensialni rivojlantirish uchun qulay va to'g'ri muhit talab etiladi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, hatto eng yosh bolalar ham boshqalar bilan fikrlarini baham ko'rish va ularga yordam berishga intiladilar. Go'daklar resurslarning teng bo'lmagan taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratadilar. Liszkowski va hamkasblarining aniqlashicha, hatto ikki yoshli bolalar ham ijtimoiy xulq-atvorni namoyon eta boshlashlari mumkin. Madaniyatlararo tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar boshqalar bilan bo'lishishga va ularga g'amxo'rlik qilishga moyildirlar. Rivojlanish darajasida olib borilgan tahlillar turli yoshdagi bolalarning boshqalarga yordam berish yoki ularni ovutishga intilishini ko'rsatadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, kognitiv va motivatsion mexanizmlar bolaning rivojlanish bosqichiga qarab farqlanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bolalarning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida otaning o'rni tobora muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Dacka Monika tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqotda otaning tarbiyadagi faol ishtiroki bolalarning axloqiy intellekti, mas'uliyat hissi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Muallif otaning shaxsiy namuna ko'rsatishi va axloqiy tamoyillarni kundalik hayotda tatbiq etishi bolaning ichki axloqiy mezonlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Otalar ishtirokining bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri masalasi Anggraini, Priyanto va Yulsyofriend tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda ham yoritilgan. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, otaning emotsional qo'llab-quvvatlashi va tarbiyaviy jarayondagi faolligi bolalarda empatiya, o'zini boshqarish va ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi. Shuningdek, Augustyn tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda otalik faqat biologik yoki moddiy ta'minot bilan cheklanmasdan, balki ma'naviy-axloqiy yetakchilik sifatida namoyon bo'lishi zarurligi qayd etiladi.

Axloqiy intellekt shakllanishining nazariy asoslari Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Uning fikriga ko'ra, bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradilar. O'zbek olimlari Saifnazarov va Saifnazarova tadqiqotlarida oilaning, xususan, otaning tarbiyadagi roli milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda yoritilgan. Mirakbarova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda esa oila institutini mustahkamlashda ota shaxsining axloqiy yetakchilik vazifasi alohida ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bolalarda axloqiy intellektni shakllantirishda otaning rolini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy yondashuvlardan foydalanildi. Ma'lumotlar asosan ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy tadqiqotlar, dissertatsiyalar hamda konferensiya materiallarini tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, oiladagi tarbiyaviy munosabatlar va otaning ishtirokiga doir mavjud empirik tadqiqotlar natijalari umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy, taqqoslash va tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil asosida qayta ishlanib, otaning tarbiyadagi ishtiroki bilan bolalarning axloqiy intellekti o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida umumiy xulosalar chiqarilib, muammoning ilmiy-nazariy jihatlarini izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axloqiy qadriyatlar ko'pincha shubha ostiga olinadigan hozirgi o'zgaruvchan dunyoda axloqiy intellektni rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Axloqiy intellekt bolalarda tarbiya jarayoni orqali erta shakllanadi. Bolalar ota-onalarini o'zlari uchun namuna sifatida qabul qiladilar va ularga o'xshashga intiladilar. Borbaning fikriga ko'ra, axloqiy intellektni erta yoshdan rivojlantirish zarur, chunki noto'g'ri to'g'ridan ajrata bilish bolalarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. An'anaviy yondashuvlarga ko'ra, erkaklarning roli asosan oilani moddiy ta'minlovchi sifatida talqin etilgan. Zamonaviy sharoitda esa otalar bolalarni tarbiyalash va ularda to'g'ri munosabatlarni shakllantirishga faol intilmoqdalar. Otalar tomonidan beriladigan yo'l-yo'riqlar bolalarning shaxsiy rivojlanishi va qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taqlid qilish, modellashtirish va identifikatsiya kabi jarayonlar orqali bolalar otalarining qiyinchiliklarga bo'lgan yondashuvlarini ichki xotirada saqlab qoladilar va ushbu xatti-harakatlarga taqlid qila boshlaydilar.

Dzhevekski ta'kidlashicha, axloqiy intellekt ko'pincha axloq va axloqiy sezgirlik tushunchalari bilan chambarchas bog'liqdir. Axloq ko'pincha intellektning muayyan shakli bilan aloqador bo'lsa-da, axloqiy sezgirlik insonni kuchaytiradigan va quvonch baxsh etadigan xatti-harakatlarni boshqalarga yoki o'ziga zarar yetkazadigan xatti-harakatlardan ajratishni o'z ichiga oladi. Lennick va Kielning ta'rifiga ko'ra, axloqiy intellekt – bu "insonning universal tamoyillarini shaxsiy qadriyatlari, maqsadlari va harakatlariga qanday qo'llash zarurligini aniqlash qobiliyati"dir.

Axloqiy intellekt butun hayot davomida rivojlanib boradigan mahorat sifatida qaraladi. Ushbu turdagi intellekt o'qitish, modellashtirish va tegishli xatti-harakatlarni mustahkamlash orqali shakllantiriladi.

Halollik rostgo'ylikni o'z ichiga oladi va ota-onalarning xulq-atvorini modellashtirish hamda og'zaki ifodalash orqali o'rganiladi. Mas'uliyat esa, o'z navbatida, noto'g'ri xatti-harakatni tan olish va uning oqibatlarini qabul qilishga tayyorlikni anglatadi. Enright va Northning (1998-yil) fikriga ko'ra, kechirish boshqalarning kamchiliklarini qabul qilish hamda boshdan kechirilgan har qanday noto'g'ri xatti-harakatlarga qaramay, ularga toqat qilishga tayyorlikni o'z ichiga oladi. Axloqiy intellekt modelining so'nggi tarkibiy qismi bo'lgan rahm-shafqat esa boshqa odamlarga g'amxo'rlik qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Borba tomonidan taqdim etilgan axloqiy intellektning yana bir modeli yetti asosiy fazilatni o'z ichiga oladi: hamdardlik, vijdon, o'zini tuta bilish, hurmat, mehribonlik, bag'rikenglik va adolat.

Hamdardlik bolalarga boshqalarning qiyinchiliklarini anglash, ularning og'rig'i va tajribalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. "Ichki ovoz" deb ham ataladigan vijdon insonlarga to'g'ri noto'g'ridan va to'g'ri yo'lni noto'g'ri yo'ldan ajratishga yordam beradi. O'zini tuta bilish o'z xatti-harakatlarini boshqarish va qanoatlanishni kechiktirishni o'rganishni anglatadi. Hurmat sog'lom munosabatlarni saqlash uchun asos bo'lib, boshqalarga nisbatan mehribon va e'tiborli xatti-harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Mehribonlik boshqalarga nisbatan ijobiy munosabat va ularning farovonligi haqida qayg'urish bilan tavsiflanadi. Bag'rikenglik boshqalarning huquqlari va e'tiqodlariga nisbatan xolis munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Nihoyat, adolat halollikni anglatadi va u halollik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Axloqiy intellekt tarbiya jarayonida inkor etib bo'lmaydigan darajada muhim rol o'ynaydi. Axloqiy intellekt axloqiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lib, ko'pincha axloqiy xulq-atvordagi sifat va miqdoriy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy intellektni rivojlantirish nafaqat axloqiy bilimlarni kengaytirishni, balki universal qadriyatlar, hissiyotlar va axloqiy tamoyillarni shakllantirishni ham qamrab oladi.

Ilk bolalik davri jismoniy va aqliy funksiyalarning rivojlanishi hamda atrof-muhit ta'siriga javob berish uchun sezgir davr hisoblanadi. Bolalar asta-sekin o'z muhitini sezgi organlari orqali anglay boshlaydilar va o'rganishni osonlashtiradigan xatti-harakatlarni rivojlantiradilar. Boshqalarga nisbatan foydali harakatlarni amalga oshirish uchun bolalar o'z hissiyotlarini boshqalarning hissiyotlaridan farqlay olishlari lozim. Muayyan axloqiy tamoyillarning buzilishiga nisbatan hissiy munosabat bildirish tendensiyasi axloqiy mulohazalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, yosh bolalar kundalik ijtimoiy munosabatlar va boshqalarning kuzatiladigan xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali rivojlanadigan yordam berishga bo'lgan tabiiy moyillikka egadirlar.

O'rta bolalik davri (4–6 yosh) ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladigan va bolalarda aybdorlik hamda uyat hissiyotlari shakllana boshlaydigan davr bo'lib, ushbu hissiyotlar vijdoniy harakatning namoyonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar adolat va tenglik tamoyillariga rioya qilishga intiladilar hamda qobiliyat va ehtiyoj o'rtasidagi muvozanatni saqlashga harakat qiladilar. Ushbu bosqichning muhim jihati niyatni tushunish qobiliyatining rivojlanishi bo'lib, bu boshqalarga nisbatan salbiy niyatlarni noto'g'ri talqin qilishning oldini olishga va ularning harakatlariga xolis baho berishga yordam beradi. Warneken va Tomaselloning fikriga ko'ra, ichki motivatsiya yordam berish xulq-atvorini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Taxminan besh yoshga kelib, bolalar munosabatlarga yoki o'zaro aloqalarga asoslangan normalarni tan olishni boshlaydilar va ularga rioya etadilar.

Kech bolalik davri (6–7 dan 10–12 yoshgacha) bilim olish, vazifalarni bajarish va ijtimoiy normalarga rioya qilish davri hisoblanadi. Ushbu davrda axloqiy bilim kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlar orqali tashkil etish hamda qayta tashkil etish jarayonidan o'tadi. Bolalarda jazodan qochish hamda mukofot yoki boshqalarning ma'qullashini izlashdan guruh bilan identifikatsiya qilish, mavjud qoidalarga muvofiq harakat qilish va ushbu qoidalarni yaratishda ishtirok etishga sezilarli o'tish kuzatiladi. O'zaro hurmatga asoslangan adolat hissi ushbu rivojlanish davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z harakatlari uchun javobgarlikni qabul qilish va o'zini tuta bilish istagi rivojlanadi. Tengdoshlar bilan munosabatlar boshqalar bilan hamkorlik qilish manbai bo'lib, o'zaro munosabat tamoyillarini rivojlantirish imkonini beradi. Axloqiy mulohazalar mavjud holatdan tashqariga chiqish va adolatsiz deb hisoblangan xatti-harakatlarni o'zgartirishga intilishni o'z ichiga oladi. Surunkali rad etilish va chetlatilish qo'rquvi tufayli guruh qoidalariga rioya qilish tendensiyasi shakllanadi. Bolalarning yaxshi bo'lishi, g'amxo'rlik ko'rsatishlari, boshqalarning ishlariga qiziqish bildirishlari hamda "boshqalarga o'zingiz xohlaganidek munosabatda bo'ling" degan oltin qoidaga amal qilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Otaning bolaning rivojlanishiga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri muloqot, munosabatlarning yaqinligi, yordam va qo'llab-quvvatlashga tayyorligi hamda tarbiyaning turli jihatlarida faol ishtirok etishi orqali namoyon bo'ladi. Bola optimal darajada rivojlanishi uchun otaning ishtiroki tug'ruqdan oldingi davrdan boshlab voyaga yetguniga qadar zarurdir. Tug'ruqdan oldingi davrda ota bola bilan munosabat o'rnatishni boshlaydi. Ushbu erta harakatlar bolaning xavfsizlik hissinı mustahkamlashga yordam beradi va tug'ilgandan keyin bog'lanishni osonlashtiradi. Go'daklik davrida otaning bola bilan munosabati yanada maqsadli va qo'llab-quvvatlovchi tus oladi. Ota manipulyativ o'yinlarda ishtirok etish va tadqiq etishga undash orqali bolaning motor va kognitiv rivojlanishini rag'batlantiradi.

Maktabgacha yosh davrida rivojlanishni rag'batlantirish bilan bir qatorda, ota bolani axloqiy tamoyillar va normalar olami bilan tanishtiradi hamda qadriyatlar tizimiga yo'naltiradi. Bolalar ota-onalari bilan identifikatsiyalashni boshlaydilar va muhim shaxslarning xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali ayollik yoki erkaklik bilan bog'liq xususiyatlarni rivojlantiradilar.

Maktab yillarida ota bolani dunyoni kashf etish, o'rganish va tushunish jarayonida qo'llab-quvvatlaydi. U bolaga maqtov va tanqidni to'g'ri qabul qilishni o'rgatadi. Otalar, shuningdek, bolaning o'z harakatlarini baholash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradilar hamda ularning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglashiga ko'maklashadilar.



O'smirlik davrida otaning roli asosan intizom, nazorat va vazifalarning bajarilishini ta'minlash kabi tartibga soluvchi ta'sirlar bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu bosqichda hokimiyat inqirozi ko'pincha yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qiyin vaziyatlarga duch kelgan o'smirlar muammolarga javob berishda ota-onalarining g'oyalari, motivlari va yondashuvlarini qabul qilishga moyil bo'ladilar. O'z xatti-harakatlarida ular otalari tomonidan belgilangan qoidalar va axloqiy tamoyillarga tayanadilar. Otalik, shuningdek, qadriyatlarini rivojlantirish, mos munosabat va xatti-harakatlarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Ota shaxsiy munosabatlar va to'g'ri axloqiy faoliyatning asosini tashkil etuvchi axloqiy tamoyillar, e'tiqod, sevgi va umidni bolaga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Otalarning g'amxo'rliqi va ilqligi yosh bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish hamda ularning axloqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy intellektni rivojlantirish jarayonida o'qitish, muhokama qilish, aniq qoidalar belgilash hamda otalar, vasiylar va o'qituvchilarning izchil faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bolalar yashaydigan muhit ularning axloqiy intellektini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, tarbiya ushbu jarayonda yetakchi rol o'ynaydi. Bolaning rivojlanishining dastlabki bosqichlarida axloqiy intellekt ota-onalar tomonidan shakllantiriladi, keyingi bosqichlarda esa o'qituvchilar va boshqa muhim shaxslar ta'siri kuchayadi. Tarbiya jarayonida ota onani qo'llab-quvvatlaydi, bolaga xavfsizlik hissini beradi, qiziqish va intilishlarni uyg'otadi, qadriyatlarga yo'naltiradi, huquq va majburiyatlarni belgilaydi hamda intizomni o'rgatadi.

Tarbiyada otaning faol ishtiroki bolalarda hamdardlik, e'tibor va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish qobiliyatini kuchaytiradi. Brantasarining tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, otaning tarbiyada ishtirok etishi bolalarda hamdardlikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa axloqiy intellektning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Borbaning fikriga ko'ra, hamdardlik rivojlangan bolalar rahm-shafqat, tushunish, bag'rikenglik va boshqalarga yordam berishga tayyorlikni namoyon etadilar. Hamdardlikning yuqori darajasi bolalarda bag'rikenglikni, g'azabni nazorat qilishni va boshqalarni yaxshiroq tushunishni ta'minlaydi.

Otalarning bolalarni tarbiyalash jarayonida faol ishtirok etishi bolalarning axloqiy intellektini rivojlantirish uchun nihoyatda muhimdir. Septiani va Nasution tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyada faol ishtirok etayotgan otalar bolalarning yoshligidan boshlab axloqiy intellektiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Septiani va Nasutionning (2017-yil) tadqiqotiga ko'ra, otalarning tarbiyada ishtiroki axloqiy intellekt rivojlantirishining 36 foizini tashkil etadi. Xuddi shuningdek, Sakinaning tadqiqot natijalari otalarning tarbiyada ishtirok etishi axloqiy intellekt rivojlanishining 17,5 foiziga hissa qo'shishini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar tarbiya jarayonida axloqiy intellektni rivojlantirishda otaning asosiy rolini yaqqol namoyon etadi. Otalarning tarbiyada ishtirok etishi to'g'rini noto'g'ridan ajrata bilish qobiliyatini rivojlantirishga, bolalar xarakterini shakllantirishga hamda axloqiy normalar, tamoyillar va qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Bolalar e'tiborli kuzatuvchilardir. Ular otasining zaif va muhtoj insonlarga yordam berayotganini ko'rib, tabiiy ravishda ushbu xatti-harakatlarga taqlid qilishga intiladilar. Otaning bolalar bilan o'yinlarda ishtirok etishi bolalarni ijtimoiy qoidalar va tamoyillar olami bilan tanishtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Kichik yoshdagi bolalarda normalar va qadriyatlarga sezgirlikni oshirishning yana bir samarali usuli birgalikda ertak o'qish yoki rasmlar hikoyalarni muhokama qilishdir. Personajlarning holatini tahlil qilish orqali bola o'zining hamdardlik qobiliyatini, axloqiy tamoyillarini rivojlantirishi va muammolarni hal qilishni o'rganishi mumkin. Ushbu faoliyatlarda ota to'g'ri xatti-harakatni shakllantirishda muhim yo'l-yo'riq manbai hisoblanadi.

Ota bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatlar bolaning tahlil qilish, mulohaza yuritish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini yanada samarali shakllantirishga yordam berishi mumkin. Otaning yo'l-yo'riqlari va berilgan savollar bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, bolalar boshqalarni qo'llab-quvvatlash jarayonida o'z til ko'nikmalarini mustahkamlaydilar hamda axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni ifodalashda yanada dadil bo'lishni o'rganadilar.

Ota va bola o'rtasidagi munosabatlar xulq-atvorni ustuvor axloqiy normalarga moslashtirishni o'z ichiga olganligi sababli, axloqning asta-sekin rivojlanishiga xizmat qiladi. Otaning bolaning ushbu qoidalarni buzishiga bildiradigan munosabati ham axloqiy intellektni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bolani vaziyatni anglashga, buzilgan normalar va qadriyatlarni hisobga olishga hamda yetkazilgan zararni qoplash imkoniyatlarini izlashga undashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarda axloqiy intellektni shakllantirish jarayonida otaning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ota tomonidan namuna ko'rsatish, axloqiy tamoyillarni kundalik hayotda qo'llash hamda bola bilan muntazam muloqotda bo'lish bolalarning to'g'rini noto'g'ridan ajrata bilish, mas'uliyat, hamdardlik va adolat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi. Otaning tarbiyadagi ishtiroki bolalarning ijtimoiy xulq-atvori va axloqiy qadriyatlarining barqaror shakllanishini ta'minlaydi.



Takliflar:

1. Ota-onalar, xususan, otalar bolalar tarbiyasida axloqiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan faol ishtirokni kuchaytirishlari zarur.
2. Oilada otaning tarbiyaviy rolini oshirishga qaratilgan ma'rifiy va psixologik treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.
3. Ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan hamkorlikda axloqiy tarbiyaga oid dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi.
4. Ota va bola o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash orqali bolalarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvor va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Role of the Father in the Formation of a Child's Moral Intelligence. Dacka Monika, 2025-yil.
2. Anggraini, V., Priyanto, A., & Yulsyofriend, Y. (2022-yil, June). Fathers' role in developing child emotional development. In 6th International Conference of Early Childhood Education (ICECE-6-2021) (pp. 130-134). Atlantis Press.
3. Augustyn, J. (1999). Ojcostwo. Aspekty pedagogiczne i duchowe [Fatherhood: Pedagogical and spiritual aspects]. Wydawnictwo WAM.
4. Bandura, A. (1977-yil). Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. Psychological Review, 84(2), 191-215.
5. Saifnazarov, I., Saifnazarova, F. Yoshlar va oila – vatan tayanchi. – Toshkent: TA'LIM, 2018-yil. – B. 16.
6. Mirakbarova, D. M. Oila institutini mustahkamlashda diniylik va dunyoviylik muvozanati. F.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.